

# GREAT BRITAIN

INTERNATIONAL SCIENTIFIC  
ONLINE CONFERENCE

INTERDISCIPLINE INNOVATION  
AND SCIENTIFIC RESEARCH  
CONFERENCE

 2024 YEAR

GREAT BRITAIN, LONDON



**ISOC**  
INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC  
ONLINE  
CONFERENCES



**INTERDISCIPLINE INNOVATION AND  
SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE**  
**International scientific-online conference**

**Part 21**

**June 15<sup>th</sup>**

**COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS**

LONDON 2024





INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE:  
a collection of scientific works of the International scientific online  
conference (15<sup>th</sup> June, 2024) – Great Britain, London: "CESS", 2024.  
Part 21 –200p.

**Chief editor:**

Candra Zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang,  
Indonesia Sunmoon University, South Korea.

**Editorial board:**

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, қазақша, о'zbek, limba  
română, кыргыз тили, Հայերէն....

The collection consists of scientific researches of scientists, graduate  
students and students who took part in the International Scientific online  
conference.

"INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH  
CONFERENCE". Which took place in London on June 15<sup>th</sup>, 2024.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers  
in higher education establishments. They can be used in education,  
including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain  
bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was  
accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The  
authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2024  
© Authors, 2024



Table:

<b>Shokhdorova Sevinch</b> <i>COMPLICATIONS OF GASTRIC AND DUODENAL ULCER DISEASES AND METHODS OF TREATMENT</i>	<b>8</b>
<b>Xolmatova Gavharshodbegim Muhammadi qizi</b> <i>O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDA XITOIY TAJRIBASIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI</i>	<b>11</b>
<b>Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li</b> <b>Xo'jabekova Ulug'oy Ilhom qizi</b> <i>DAVLAT BUDJETI G'AZNA IJROSINING MOHIYATI VA AHAMIYATI</i>	<b>17</b>
<b>O'.Baytanov</b> <b>Ergashev Azizbek Shodiyor o'g'li</b> <i>INSON RESURSLARINI STRATEGIK BOSHQARISH</i>	<b>20</b>
<b>Sattorov Shakhzod Yarashovich</b> <b>Asatov Jasurbek Sayitkulovich</b> <b>Jo'raqulov Fazliddin Faxriddinovich</b> <i>LINKING THE ATTRIBUTIVE TABLES OF THE THEMATIC LAYERS IN THE GEODATABASE TO THE ALGORITHM</i>	<b>23</b>
<b>Sattorov Shakhzod Yarashovich</b> <b>Asatov Jasurbek Sayitkulovich</b> <b>Jo'raqulov Fazliddin Faxriddinovich</b> <i>IMPORTANCE OF MODERN METHODS AND TECHNOLOGIES IN CARD MAKING</i>	<b>28</b>
<b>Qirg'izov Samandar Azizbek o'g'li</b> <b>Usmonov Dilmurod Dolimovich</b> <i>XALQARO BAHOLASH DASTURLAR</i>	<b>32</b>
<b>Maxamadaliyeva E`zoza Rustamxoja qizi</b> <i>MARKET ECONOMY AND GOVERNMENT STATISTICS IN UZBEKISTAN</i>	<b>36</b>
<b>Bo'riyev Odil Qobilovich</b> <b>Abdurofiyeva Nodirabonu</b> <i>"RIVOJLANGAN MAMLAKATLARNING KONSTITUTSIYASI HAMDA ULARNING ENG MUHIM JIHATLARI"</i>	<b>38</b>
<b>Madina Yakubova</b> <b>Mukhlisa Samiyeva</b> <i>CORE CONCEPTS OF CREATIVITY AND INNOVATION IN BUSINESS ENVIRONMENT</i>	<b>42</b>
<b>Islombek Abdukhamidov</b> <i>POPULATION MIGRATION AND ITS CLASSIFICATIONS</i>	<b>45</b>
<b>Размухамедов Даниярбек Джахангирович</b> <b>Г.В.Плеханова</b> <b>Арипов Саид-Азим Арипович</b> <i>АНАЛИЗ СЕЙСМИЧЕСКОГО РАЗРУШЕНИЯ ПРИ ПОМОЩИ МЕТОДОВ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ ВЕРОЯТНОСТИ</i>	<b>50</b>
<b>Хикматов Бекзод Фазлиддинович</b> <i>"TOF KЎLLARI TЎFONIDA СУВ ОҚИМИ ТАЪСИРИДА ШАКЛЛАНАДИГАН ЎЙИҚ ПАРАМЕТРЛАРИНИ ҲИСОБЛАШ (ҚУРБОНКЎЛ ТЎФОНИ МИСОЛИДА)"</i>	<b>59</b>



<b>Rahmatova Malika Tulkinovna</b> <i>MODAL VERBS INTRODUCTION</i>	
<b>G'aniyeva Mahliyo Norboyevna</b> <i>TRANSLATION OF INTERNET NEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES</i>	<b>132</b>
<b>G'aniyeva Mahliyo Norboyevna</b> <i>THE GRADUAL INFILTRATIONS OF INTERNET NEOLOGISMS INTO ENGLISH AND UZBEK CONTEXTS.</i>	<b>135</b>
<b>Feruz Rajabov Umarqulovich</b> <i>HONOMYS ARE A TOOL FOR FORMING ARTISTIC TEXTS</i>	<b>138</b>
<b>Qarayev Jasur Bakir o'g'li</b> <i>TIJORAT BANKLARINING FOYDA VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.</i>	<b>141</b>
<b>Qodirova Mohinur</b> <i>THE IMPORTANCE OF TAHIR MALIK'S WORK IN OUR LITERATURE</i>	<b>144</b>
<b>Qodirov Muhsinjon</b> <i>GENERAL INDICATORS AND RESULTS IN THE HEALTH CARE SYSTEM OF KOKAND CITY IN RECENT YEARS.</i>	<b>147</b>
<b>Egamov Elyorbek Komilovich</b> <i>BOTANICAL CHARACTERS OF GULSAFSAR PLANT</i>	<b>150</b>
<b>Alimirzayev Nodirbek Avazbek o'g'li</b> <i>PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF COMMUNICATIVE COMPETENCE DEVELOPMENT IN PEDAGOGICAL SUPERVISORS</i>	<b>154</b>
<b>Khushbakhtova Dilnoza Zhailov's daughter</b> <i>OUR EPICS ARE OUR SPIRITUAL AND EDUCATIONAL MIRROR</i>	<b>158</b>
<b>Tojimatova Gavharoy G'ulomjonovna</b> <i>O'SMIRLARDA DESTRUKTIV XULQ KELIB CHIQUISHINING IJTIMOIIY – PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.</i>	<b>162</b>
<b>Нуруллаев Дилшод Суннатулло ўғли</b> <i>КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШИШ ТЎҒРИСИДАГИ ҚОНУНЧИЛИКНИНГ ИЖРО ЭТИЛИШИ УСТИДАН ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИ</i>	<b>167</b>
<b>Арипов Алишер Сайфиддинович</b> <i>КОРРУПЦИЯ ТУШУНЧАСИ, ТАСНИФИ ВА КЕЛИБ ЧИҚИШ САБАБЛАРИ</i>	<b>176</b>
<b>Бердиев Фазлиддин</b> <i>ПРОРЯДОК В СИСТЕМЕ ТРАДИЦИОННОСТИ</i>	<b>182</b>
<b>Чориев Шоҳзод Тўймуродович</b> <i>ДАВЛАТ ХАПИДИ ТИЗИМИ ПИВОЖЛАНТИПИШ ЙУНАЛИШЛАРИ</i>	<b>185</b>
<b>Masharipov Alijan Axmadjon O'g'li</b> <i>RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IJOBIV TOMONLARI VA EHTIMOLIV XATARLARI</i>	<b>188</b>
<b>Mamatova Xosiyat Bazarbayevna</b> <i>BIZNES LOYIHALARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA MUVAFFAQIYATLI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI</i>	<b>190</b>
<b>Raxmatov Idrok Ixomovich</b> <i>TAKRORIY EKIN SIFATIDA O'STIRILGAN SHIRIN MAKKAJO'XORI NAV VA</i>	<b>193</b>



<i>DURAGAYLARINING MAHSULDORLIGIGA EKISH MUDDATLARI HAMDA SXEMALARINING TA'SIRI</i>	
<b>Mahmudova Muqaddam Fayzullayevna</b> <i>OZBEKISTONDA ETNIK VA KONFESSIYALARARO MUNOSABATLAR</i>	<b>197</b>



UDK: 635.5:631.55

TAKRORIY EKIN SIFATIDA O'STIRILGAN SHIRIN MAKKAJO'XORI NAV VA  
DURAGAYLARINING MAHSULDORLIGIGA EKISH MUDDATLARI HAMDA  
SXEMALARINING TA'SIRI

Raxmatov Idrok Ilxomovich

*Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada shirin makkajo'xori nav va duragaylari takroriy ekin sifatida o'stirilganda ekish muddatlari hamda ekish sxemalarining mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ya'ni, bir tup o'simlikda shakllangan birinchi va ikkinchi so'talarning vazni, diametri, uzunligi, aylanasidagi donlar sonini shakllanishiga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Takroriy ekin, shirin makkajo'xori, ekish sxemasi, mahsuldorlik, so'ta vazni, so'ta diametri, so'ta uzunligi, nav, duragay.

### KIRISH

Bugungi kunda kam tarqalgan ammo istiqbolli bo'lgan shirin makkajo'xori so'tasiga bo'lgan talabning ortishi uning yuqori sifatli biokimyoviy tarkibi bilan bog'liq[2]. Shirin makkajo'xori so'talarini to'g'ridan to'g'ri yangiligicha iste'mol qilish mumkin[1]. Dunyoda shirin makkajo'xori so'talari asosan oziq-ovqat sanoatida qayta ishlanadi. Shirin makkajo'xori so'talarini konservalash yoki muzlatish yuqori rentabelli bo'lganligi bois bu mahsulotni qayta ishlash hajmini kun sayin oshirib bormoqda[3,4]. Hozirgi kunga kelib qayta ishlovchi korxonalar tomonidan shirin makkajo'xori nav va duragaylari katta maydonlarda yetishtirilmoqda.

Tajriba natijalari. Tadqiqotlarimizda shirin makkajo'xori nav va duragaylari to'plami orasidan Buxoro viloyati sharoitida takroriy ekin sifatida o'stirishga mosligi bo'yicha Maza, Zamin, Megaton F<sub>1</sub> va Yunion F<sub>1</sub> kabi nav va duragaylari tanlab olindi. Ajralgan ushbu nav va duragaylar turli ekish sxemalarida va muddatlarida o'stirilganda o'simlikda so'talarning joylashish balandligi ham nisbatan o'zgarib bordi, ya'ni qator orasi va qatordagi tuplar orasi qisqargan sayin so'talar o'simlikning balandroq qismida shakllanganligi kuzatildi. Shirin makkajo'xorining Maza navi 25 iyunda 60x20 sm sxemada ekilganda birinchi so'taning joylashish balandligi 35,7 sm, 60x25 sm sxemada 34,2 sm ni, 60x30 sm sxemada 33,0 sm ni yoki 70x20 sm sxemada 34,2 sm ni, 70x25 sm sxemada 33,4 sm ni, 70x30 sm sxemada o'stirilganda esa so'ta joylashish balandligi 32,2 sm ni tashkil etdi. Ushbu qonuniyat 05 iyul va 15 iyulda ekilganda ham saqlanib qoldi. Bundan tashqari Zamin navi, Megaton F<sub>1</sub> va Yunion F<sub>1</sub> duragaylarida ham dastlabki so'taning joylashishiga ekish sxemasi qisman ta'sir ko'rsatib, ekish sxemasi qisqargan sayin so'talarning joylashish balandligi ko'tarilib bordi. Shuning bilan bir qatorda ta'kidlab o'tish lozimki, shirin makkajo'xori nav va duragaylari o'simliklarida so'talarning joylashish balandligi ularning nav belgisi hisoblanib, agrotexnik tadbirlar ta'sirida keskin o'zgarib ketmadi, ammo sezilarli darajada farqlandi.

Dastlabki so'taning joylashish balandligi ham o'simlikni oziqlanish maydoniga, nav va duragaylarning biologik xususiyatiga bog'liqligi matematik-statistik jihatdan isbotlandi.



Maza va Zamin navida, Yunion  $F_1$  duragayida o'simliklarning oziqlanish maydoni kengayib borgani sari birinchi so'ta quyiroqda bo'lishi aniqlandi. Barcha holatlarda bog'liqlik kuchli ( $r > 0,7$ ) bo'lishi, o'z navbatida esa teskari bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Faqatgina Megaton  $F_1$  duragayi qator orasi 70 sm qilib parvarishlanganda ushbu qonuniyatga bo'ysinmasligi, o'ziga xos tarzda kechishi hisobga olindi.

Turli muddat va turli ekish sxemalarida shirin makkajo'xori nav va duragaylarini yetishtirish so'ta uzunligi va diametriga ham ta'sir ko'rsatib, birinchi va ikkinchi so'talar uzunligi Maza navida 22,1 sm dan 24,9 sm gacha ortib bordi. So'ta diametri esa 4,2 sm dan 5,2 sm gacha qayd etilib, eng uzun va yo'g'on so'ta shakllanishi 5 iyulda 60x20 sm sxemada ekilgan o'simliklarda qayd etildi. Ya'ni dastlabki so'talarning uzunligi muddatlarga tegishli 24,4; 24,9; 23,8 sm ni, so'talarning diametri esa 4,9; 5,2 va 5,0 sm ni tashkil etdi. Shuning bilan 1 qatorda ushbu navda birinchi so'taning aylanasidan don qatorlar soni ekish muddatlari va sxemalariga bog'liq ravishda 14,6-16,0 qatorni, so'taning 1 qatoridagi donlar soni 34,9-39,5 donani tashkil etdi. Umuman olganda Maza navi birinchi va ikkinchi so'talarining ko'satkichlari bo'yicha yuqori natija turli ekish muddatlaridan qat'iy nazar 60x20 yoki 70x20 sm sxemalarida nomoyon qildi, chunki bu ekish sxemalarida o'simliklar kam so'tali asosan bir dona so'ta shakllanganligidir.

Shirin makkajo'xorining Zamin navida ham ekish muddatlari va sxemaliga mos ravishda so'ta uzunligi 21,8-24,2 sm ni, diametri 4,4-5,7 sm ni, so'ta aylanasidagi don qatorlar soni 14,0-17,3 ni, bir qatordagi donlar soni 37,5-43,1 donani tashkil qildi. Ekish muddatlari hamda ekish sxemalari bo'yicha eng yuqori ko'satkich shirin makkajo'xorining Megaton  $F_1$  va Yunion  $F_1$  duragaylarida 5 iyul muddatda 60x20 va 70x20 sm sxemada ekilgan variantlarda qayd etildi.

Bunda dastlabki so'taning uzunligi 27,5-27,8 sm; 26,1-26,2 sm ni, diametri 4,4-5,5 sm, 5,4-5,5 sm ni, so'taning aylanasidagi don qatorlar soni 16,0-16,2; 22,3-22,5 qatorni, qatordagi donlar soni 48,4-48,7; 45,7-45,8 donani tashkil qildi. Bizga ma'lumki, shirin makkajo'xorining so'tasi va donlari so't-mum pishish vaqtida iste'molda ishlatiladi, shuning uchun ham so'tadan don chiqimi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.


Shirin makkajo'xorining Maza navi so'talari sut-mum pishish davridagi don chiqimi ekish muddati hamda ekish sxemasiga qarab 219,7 grammdan 251,0 grammgacha yoki 58,1 foizdan 65,9 foizgacha oshib bordi. O'rtacha 1 dona so'tadan ho'l don chiqimi bo'yicha eng yuqori ko'satkich 5 iyulda 60x30 va 70x25 sm sxemalarda ekilganda qayd etilib 1 chi so'tadan ekish sxemalariga tegishli 251,0-247,8 g, ikkinchi so'tadan esa 191,9-190,3 g ni yoki 65,9-64,6 %; 61,6-60,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, ushbu ko'satkich mos ravishda Megaton  $F_1$  duragayida ham 5 iyulda ekilganda qayd etilib birinchi so'taning ko'satkichlari tegishli 251,6-258,8 gr yoki 61,0-64,4% ni tashkil etdi. Shuningdek 60x30 va 70x25 sm sxemalarda 5 iyulda ekilganda 255,7-255,3 g yoki 67,6-65,6%, 15 iyulda ekilganda 219,4-224,3 gr yoki 64,1- so'talarga tegishli 41,6-69,3 g; 30,4-46,0 g ni, o'zak chiqimi esa 81,0-91,6 g; 54,1-60,3 g ni tashkil etdi. Shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, shirin makkajo'xorining Megaton  $F_1$  duragayida ham 5 iyulda 60x20 sm sxemada ekilganda ikkinchi so'taning rivojlanishi kuzatilmadi va yakka so'tali o'simliklar shakllandi.





Yakka so'tali o'simliklarning shakllanishi hisobiga yig'ishtirib olingan so'talardan qobiq va o'zak chiqimi boshqa variantlarga nisbatan yuqori bo'lganligi qayd etildi. Shirin makkajo'xorining birinchi va ikkinchi so'talarining ko'rsatkichlarini tahlilidan ayon bo'ldiki ushbu ekinning nav va duragaylarini takroriy ekin sifatida yetishtirilganda oziqlanish maydonining qisqarishi hisobiga bir so'tali o'simliklarning paydo bo'lishi yoki aksincha oziqlanish maydoning juda katta bo'lishi ham so'tadan qobiq va o'zak chiqimini oshirib, don chiqimini kamayishiga olib kelar ekan.



1-rasm. Maza navi va Megaton F<sub>1</sub> duragayida ekish muddatlari va sxemalarining so'tadan qobiq va o'zak chiqimini ta'siri

Shuningdek, ushbu ekin takroriy ekin sifatida yetishtirilganda ekish muddatiga bog'liq holda ham qobiq va o'zak vaznining ortishi kuzatildi, ya'ni 25 iyunda ekilgan shirin makkajo'xori o'simliklarida dastlabki bir dona so'tadan o'rtacha qobiq chiqimi 11,2-17,1 %, o'zak chiqimi 21,6-22,8 %, don chiqimi 60,1-67,2 % ni tashkil etdi.

Shirin makkajo'xorining ushbu duragayi 5 iyulda ekib o'stirilganda esa dastlabki so'tadan qobiq chiqimi o'rtacha 11,0-16,8 %, o'zak chiqimi 21,4-22,2 %, don chiqimi 61,0-67,6 % ni, 15 iyulda ekib etishtirilganda qobiq chiqimi 13,0-17,8 %, o'zak chiqimi 22,9-23,9 %, don chiqimi esa 58,3-64,1 % ni tashkil etdi.

Shirin makkajo'xorining Megaton F<sub>1</sub> duragayini takroriy ekin sifatida turli muddat va turli ekish sxemalarida ekib yetishtirilganda birinchi va ikkinchi so'talar ko'rsatkichlari tahlillari asosida aytish mumkinki ushbu nav va duragaylarni takroriy ekin sifatida 5 iyulda 6x30 va 70x20 sm sxemalarda ekib yetishtirish yuqori sifatli so'talar shakllanishini ta'minlar ekan.

Ekish sxemasi va ekish muddatining shirin makkajo'xori so'tasining shakllanishiga ta'siri Yunion F<sub>1</sub> duragayida ham kuzatildi. Ya'ni ushbu duragayni yetishtirishda ekish muddatlariga qarab dastlabki so'talarning vazni 400,1-456,2 g; 410,2-470,1 g; 338,7-443,5 g gacha ortib bordi. Ikkinchi so'talarning vazni ham tegishlicha 25 iyunda ekilgan variantda 279,2-302,4 g, 5 iyulda ekilgan variantda 301,8-315,1 g bo'ldi, 15 iyulda ekilganda esa ikkinchi so'talar to'liq shakllanmay qolganligi kuzatildi. Eng yuqori vaznli dastlabki so'talar shakllanishi 05 iyulda 60x25, 70x20 va 70x30 sm sxemalarda ekilgan variantda qayd etilib dastlabki so'talar vazni qobig'i bilan o'lchanganda 467,9-470,1 grammni tashkil etdi. Ushbu muddatda shakllangan ikkinchi so'talar ham vazning yuqoriligi bo'yicha boshqa variantlarga nisbatan ustunlik qilib 310,9-315,1 g dan iborat bo'ldi. Shirin makkajo'xorining Yunion F<sub>1</sub> duragayida 5 iyulda yetishtirilgan birinchi va ikkinchi so'talari qobig'idan



ajratilganda vazni tegishli ravishda 363,0-401,5 g va 251,1-258,6 g, qobig'ining vazni 49,2-79,9 g; 43,5-60,9 g, o'zak vazni esa 77,5-105,5 g; 60,9-81,6 g, donining vazni 281,8-298,6 g; 175,5-197,5 g bo'lganligi qayd etildi.

Shuningdek o'rtacha 1 dona so'tadan qobiq, o'zak, don chiqimi foiz hisobida tahlil qilinganda shirin makkajo'xorini Yunion F<sub>1</sub> duragayida ikkinchi va ikkinchi so'talaridan ekish muddatlari hamda ekish sxemalariga bog'liq holda qobiq chiqimi 12,0-18,1 %; 14,4-19,8 %, o'zak chiqimi 18,9-24,0 %; 20,2-25,9 %, don chiqimi 57,3-69,1 %; 54,7-65,4 % ni tashkil etdi.

Xulosa. Shirin makkajo'xori nav va duragaylari takroriy ekinda yetishtirilganda ikkinchi va ikkinchi so'tadagi don vaznining turli ekish muddatlarida ekish sxemalariga bog'liqligi tahlil etilganda, ma'lumotlar ko'rsatishicha daslabki shakllangan so'talariga nisbatan keyingi so'talarda o'zak va qobiq vazni ortib don vazni esa kamayib borar ekan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Капустин А.А. Сахарная кукуруза. // Вестник овощевода. №3. 2009. – С. 8-11.
2. Ostonaqulov T.E. Sabzavot (shirin) makkajo'xori navlarini tanlash va ulardan yuqori hosil olish texnologiyasiga oid tavsiyalar. T.: 2005, – 38 b.
3. Sanayev S.T., Shamsiyeva Sh.B. Qayta ishlashga mos sabzavot (shirin) makkajo'xori navlarini o'stirish texnologiyasi. // J. AGRO ILM maxsus son – T, 2020. – B. 54-55.
4. Сапарниязов И.А., Санаев С.Т. Возделывание сортов и гибридов сахарной кукурузы как основной культуры в Каракалпакстане. Овощи России. 2022. №3 – С. 62-65.